

**Turdiyeva Hulkar Komilovna (Alisher Navoiy nomidagi  
O‘zbek tili va adabiyoti universiteti, “Sharq tillari” kafedrası o‘qituvchisi)  
NUTQIY AKT LINGVOPRAGMATIKASI: FORS VA O‘ZBEK TILLARIDA  
XAYRLASHUV BIRLIKLARI**

***Annotatsiya.** Maqolada nutqiy aktda fors va o‘zbek tillaridagi xayrlashuv birliklari lingvopragmatik tadqiq qilinadi. Ularni o‘zaro solishtirish, tahlil qilish, umumiy fikrlarni bayon qilish vazifalari belgilandi. Tadqiqot usullari tadqiqot nazariy uslubi tahlilii: har bir obyektни imkon qadar batafsil yoritib, ularni nazariy tahlil qilish; qiyosiy: o‘rganilgan masalalarni o‘zaro qiyoslab, o‘xshashligi va farqlarini, umumiyliги va alohidaligini aniqlash; empirik uslub jihatdan kuzatuv: xayrlashuv birliklari aks etgan birliklarni jonli va yozma suhbatlardan va OAVda kuzatish kabilardan iborat. Birliklarda pozitiv va negativ feysning (hurmat ifodasi) aks etishi hamda lingvistik, pragmatik va semantik jihatdan tahlil etildi.*

***Аннотация.** В статье с лингвопрагматической точки зрения обсуждаются персидские и узбекские фразы прощания. Намечены задачи их сравнительного анализа, обобщения изложенного метода. Метод исследования имеет теоретический и эмпирический характер такой, как анализ данных как можно более подробный, сравнение нескольких данных с учётом специальных критериев для поиска сходств и различий; метод эмпирических наблюдений используется для наблюдения за реальными и виртуальными СМИ, а также за повседневными коммуникациями. Речевые единицы были проанализированы с лингвистической, прагматической и семантической точки зрения с учетом положительного и отрицательного лица (проявление вежливости).*

***Annotation.** In this article Persian and Uzbek leave taking units will be discussed linguapragmatically. The tasks of comparing, analyzing, summarising the general approach of the theories were accomplished. Method of research has theoretical and empiric character such as analyzing the data as detailed as possible; comparing the several data considering special criterias to find similarities and differences; empiric observing method is used to conduct an observation over real and virtual mass-media, also daily life communications. Speech units were analyzed linguistically, pragmatically and semantically considering positive and negative face of politeness theory.*

***Kalit so‘zlar:** lingvopragmatika, xayrlashuv, nutqiy akt, nutqiy etiket, taarif.*

***Ключевые слова:** лингвопрагматика, прощание, речевой акт, речевой этикет, таариф.*

***Key words:** lingua-pragmatics, leave taking, speech act, speech etiquette, taarif.*

**Kirish.** Tilshunoslikda pragmatika sohasi hozirgi kunda yangi hamda dolzarb mavzu bo‘lib, ikki tilni chog‘ishtirib tahlil qilish tadqiqot samaradorligini oshiradi. Maqolada xayrlashuv nutqiy aktlaridagi taarif (nutqiy etiket birliklari) fors va o‘zbek tillari lingvopragmatik tadqiq qili-nadi.

Eron va O‘zbekiston madaniyati ko‘p asrlardan beri bir-biriga mushtarak ekanligi tarixdan ma‘lum. Fors madaniyati va o‘zbek madaniyatidagi o‘xshashliklar orasida ham tafovutlar, fors tilidagi variant o‘zbek tilida butunlay teskari ma‘noni ifodalashi mumkinligi yoki, aksincha, holatlar izlanishlarimizda o‘z isbotini topdi. Bir millatda ehtirom belgisi sifatida qabul qilingan tushuncha boshqa bir mamlakatda butunlay aksi, qo‘pollik tushunchasini ham berishi mumkin. Bunda batafsil lingvopragmatik tadqiqotga muhtojlik seziladi.

Nutqiy etiket birliklari bo'yicha Eron tilshunosligida Keshavarz<sup>1</sup> (1988, 1993: murojaat etish atamallari), Hosseini<sup>2</sup> (2009, ikki suhbatdosh o'rtasidagi mulozamat), Nanbakhsh<sup>3</sup> (2011, 2012: Eron jamiyatida til qo'llanilishi va xushmuomalalik qoidalari, Beeman<sup>4</sup> (1986), Koutlaki<sup>5</sup> (2002), Sharifian<sup>6</sup> (2011), Sahragard<sup>7</sup> (2011) kabi tadqiqotchilar izlanishlar olib borganlar.

O'zbek tilshunosligida esa Sh.Iskandarova<sup>8</sup> ("O'zbek nutqi odatining muloqot shakllari"), A.Mo'minova<sup>9</sup> ("O'zbek nutq etiketi: "Siz" va "Sen"ning ifodalanishi"), H.Hojiyeva<sup>10</sup> ("O'zbek tilida hurmat maydoni va uning lisoniy-nutqiy xususiyati") kabi tilshunoslar mazkur mavzuga o'z tadqiqotlari bilan hissa qo'shganlar. Lekin xayrlashuv nutqiy aktiga bag'ishlangan mufassal tadqiqot hali kuzatilmadi.

Insonlar xayrlashayotganda "xayr" ma'nosidagi bir xil ma'noli ekvivalentlar jahonning deyarli hamma tilida bor (Good-bye (inglizcha); Досвидания (ruscha); Sampai jumpa (indonezcha); じゃまた Ja mata (yaponcha) va h.k.). Ammo ba'zi xalqlar mentalitetidan kelib chiqib, qiziqarli farqlarni ko'rish mumkin. Bunda dinning nutqga ta'siri va axloq me'yorlarining ifodasini ko'rish mumkin. Masalan, ingliz tilida "Goodbye" – "God be with you" – "Xudo siz bilan bo'lsin". Ispan tilidagi xayrlashuv so'zi "Adios" – "Xudoga" (topshirdim); musulmon xalqlarda "Assalom-u alaykum va rahmatulloh-u barokatuh" – Alloh sizga tinchlik, rahm va baraka bersin", fors tilida خُداحافظ (Xoda hafez) "Xudo asrasin!" xayrlashuv so'zlarining ildizlari din ta'limotlari bilan bog'liqligini anglash mumkin. Shuningdek, yaxshi tilak bildirish, jumladan, ko'pgina tillarda mavjud "safaringiz bexatar bo'lsin", "kuningiz xayrli bo'lsin", "sog'ayib keting" ma'nolarida qo'llanuvchi xayrlashuv iboralari hamda so'zlovchi tinglovchiga nisbatan nutqiy etiketni ifodalash uchun o'zini pastga urish variantlarini ham kuzatish mumkin. Misol o'rnida forslardagi قربونت برم (qorbunet beräm) xayrlashuv iborasi ma'nosi "Qurboningiz bo'lay", italyanlardagi "Ciao!" so'zi etimologiyasi "Men sizning qulingizman" degan ma'noni ifoda etadi.

Fors tilida ham, o'zbek tilida ham suhbatni birdan tamomlash, to'satdan xayrlashish hurmatsizlik sanaladi. Shuning uchun suhbat yakuniga ishora sifatida "xayrlashuv kalitlari"dan foydalanadilar.

**Tadqiqot metodi.** Tahliliy (har bir obyektini imkon qadar batafsil yoritib, ularni nazariy tahlil qilish), qiyosiy (o'rganilgan masalalarni o'zaro qiyoslab, o'xshashligi va farqlarini, umumiyli va alohidaligini aniqlash) va empirik-kuzatuv (xayrlashuv aktlari aks etgan birliklarni jonli va yozma suhbatlardan va OAV vositasida kuzatish).

**Tadqiqot natijalari.** از دیدن شما خیلی خوشحال شدم (az didän-e şoma xeyli xoshhāl şodäm) "Sizni ko'rganimdan xursandman", از ملاقاتتان خیلی خوشحال شدم<sup>11</sup> (az molaghatetan xeyli xoshhāl şodäm) "Siz bilan uchrashib juda xursand bo'ldim"ga javoban هم همچنين من (bände) (män (bände) hām hāmçenin)/mänäm hāmçenin/"Men (qulingiz) ham shunday" (Men ham xursandman) deb

<sup>1</sup> Keshavarz M. 1988: Forms of address in post-revolutionary Iranian Persian: A sociolinguistic analysis. *Language in Society* 17:565-575.

<sup>2</sup> Azar Hosseini Fatemi. Delving into the Speech Act of Accusation: A case of Persian and English newspapers and magazines. [www.researchgate.net](http://www.researchgate.net)

<sup>3</sup> Nanbakhsh G. (2011). Persian Address Pronouns and Politeness in Interaction. PhD. dissertation, University of Edinburgh.

<sup>4</sup> Beeman W.O., (1986). *Language, Status, and Power in Iran*. Bloomington: Indiana University Press.

<sup>5</sup> Koutlaki S.A. (2002). Offers and expressions of thanks as face enhancing acts: ta'e'arof in Persian. *Journal of Pragmatics* 34 (12), p. 1733 – 1756.

<sup>6</sup> Farzad Sharifian. *The Persian cultural schema of shekasteh-nafsi. A study of compliment responses in Persian and Anglo-Australian speakers*. Monash University, Melbourne. John Benjamins Publishing Company, 2005.

<sup>7</sup> Sahragard R. (2004). A cultural script analysis of a politeness feature in Persian. *Proceeding of the 8th Pall conference in Japan*, p. 399 – 423.

<sup>8</sup> Iskandarova Sh. Ayollar nutqida undov so'zlarining qo'llanishi. Respublika yosh filolog olimlarining an'anaviy ilmiy konferensiyasi materiallari. Toshkent, 1991, 61 – 63-betlar.

<sup>9</sup> ibrary.ziynet.uz Mo'minova A. Uzbek Nutq etiketi: "Siz" va "Sen"ning ifodalanishi. 2015.

<sup>10</sup> Hojiyeva H.Y. O'zbek tilida hurmat maydoni va uning lisoniy-nutqiy xususiyati.

<sup>11</sup> Cease fire. Otashbas. Eron badiiy filmi <https://www.youtube.com/watch?v=TO9x5ZDhSG8>

aytilishi xayrlashuv dialogiga kirish qismidir. O‘zbek tilida “Uchrashganimiz yaxshi bo‘ldi”, “Sizni ko‘rib xursand bo‘ldim”, “Gaplashib maza qildim” kabi jumlar esa suhbatni chiroyli yakunlashning boshlang‘ich qismi bo‘lib xizmat qiladi.

Emotsional bo‘yoqdorlikga ega quyidagi forscha jumla xayrlashuv uchun ishlatiladi: دیدار (didare zudtare şoma bayese xuşhaliye män xahäd şod). Sizni yaqin kunlarda ko‘rishim xursandchiligimga sabab bo‘lar edi. O‘zbek tilidagi bu ibora “Yana uchrasharmiz”, “Yana gaplasharmiz” kabi xayrlashuv birliklariga to‘g‘ri kelsa-da, emotsional ma‘noni to‘laligicha ochib bera olmaydi. Yanada emotsional bo‘yoqdorlikga ega taorifni ham so‘rovnomalar natijasida kuzatdik: از دیدار جناب عالی ما سرافراز شدیم (äz didare jänabe ali ma säräfräz şodim). Siz janobi oliylarini ko‘rish biz uchun iftixordir. Bu ko‘rinishdagi etiket birligini o‘zbek tilida hali uchratmadik.

Fors tilida کاری ندارید<sup>1</sup> (kari nädarid) “menda ishingiz yo‘qmi?” og‘zaki norasmiy nutqda suhbatdosh siz bilan xayrlashishga tayyor ekanligini tasdiqlab olish uchun beriladigan savoldir. O‘zbek tilida ikkita invariantini kuzatdik: “Yana biror ishingiz bormi?” degan savol do‘stonalikdan uzoqroq munosabat bo‘lib, yuqori mavqe quyi mavqega nisbatan qo‘llanilsa, “Bizga xizmat bormi?” nutqiy etiketning yuqori darajasi, ehtiromni anglatib, quyi mavqe kishilari tomonidan yuqori mavqe kishilariga nisbatan aytilishi aniqlandi.

Fors tilida neytral bo‘lgan, jahon tillaridagi xayrlashuv so‘ziga tarjima bo‘la oladigan خُداحافظ (Xoda hafez) (ma‘nosi “Xudo asrasin!”) – Xayr! xayrlashuv iborasidan tashqari quyidagicha taorifli birliklarni kuzatdik:

خدا نگهدار (xoda negähdar) Xudo asrasin! / خدا به همراهت (xoda be hämrahät) Alloh hamrohing bo‘lsin. برو به امان خدا (borou be ämane xoda) Xudo panohida borgin.

Mazkur birikmalar o‘zbek tiliga to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilinsa, eronlik nazarda tutgan ma‘no pragmatik xatolarsiz anglanishi dinimiz bir bo‘lgani uchun tabiiydir. Lekin turli din va madaniyat vakiliga bu tarzda tarjima qilish “dinga da‘vat” yoki bosimdek tuyulishi manbalar<sup>2</sup> asosida aniqlandi. O‘zbek tilida esa “Allohgga (omonat) topshirdim”, “Xudo o‘z panohida asrasin” birliklari qo‘llaniladi.

Mehmon uydan ketayotganda xayrlashuv quyidagicha kechadi: زحمت نکشید، راهرا بدم. – “Zähmät näkeşid rah ra bälädäm” – Ovora bo‘lmang, yo‘lni yaxshi bilaman (Kuzatmang, o‘zim keta olaman); حالا تشریف داشتید! – “hala täşrif daştid”<sup>3</sup> – Bu yerda qoling (Sekinroq yuring, ehtiyot bo‘lib yuring).

Bularni so‘zma-so‘z tarjima qilish, albatta, konnotativ xatoni yuzaga keltiradi.

Yuqoridagi misollarni nutqiy etiket birliklaridan bexabar odam uchratsa, ayniqsa, “hala tashreef dashteed” iborasini to‘g‘ridan to‘g‘ri tushunishi tabiiy. Lekin ajablanarlisi, bu gapdagi [täşrif daştid] (qolmoq) fe‘li sekinroq harakat qilmoq ma‘nosiga ishora qiladi.

Eronshunos olim Saberi<sup>4</sup> o‘zining “Routine Politeness Formulae in Persian” – “Fors tilida kundalik muloyimlik formulalari” tadqiqotida فعلا (felän) “Hozircha”; می بینمت (mibinämet) “Ko‘rishguncha” (lug‘aviy: “Seni ko‘raman”); تا بعد (ta bäd) “Ko‘rishguncha” (lug‘aviy: Keyinroqgacha) kabi xayrlashuv iboralari (inglizcha: See you!) “ko‘rishguncha” ma‘nosi bilan norasmiy muloqotdagi yoshlar tomonidan ko‘p qo‘llaniladi; keyinroq rostdan uchrashishga va‘dalaşuv yoki shunchaki mulozamat ekanligi mazkur birlikda noaniq bo‘lib, kontekst orqali aniqlanadi va boshqa xayrlashuv iboralari dastasini ochib beruvchi birlik sanaladi”, – deb keltiradi.

<sup>1</sup> DCT (Discourse Centre Tasks) metodidagi so‘rovnoma [https://docs.google.com/forms/d/12JGDTIKx6a\\_Zu2iZH\\_8DJn60GDGkJK2FGmahfwzrQ9E/edit#responses](https://docs.google.com/forms/d/12JGDTIKx6a_Zu2iZH_8DJn60GDGkJK2FGmahfwzrQ9E/edit#responses)

<sup>2</sup> DCT (Discourse Centre Tasks) metodidagi so‘rovnoma [https://docs.google.com/forms/d/12JGDTIKx6aZu2iZH\\_8DJn60GDGkJK2FGmahfwzrQ9E/edit#responses](https://docs.google.com/forms/d/12JGDTIKx6aZu2iZH_8DJn60GDGkJK2FGmahfwzrQ9E/edit#responses)

<sup>3</sup> Akbar Afghari, Amin Karimnia. A Contrastive Study of Four Cultural Differences in Everyday Conversation between English and Persian. Intercultural Communication Studies XVI: 1. 2007.

<sup>4</sup> Saberi K. (2012). Routine Politeness Formulae in Persian: A Socio-Lexical Analysis of Greetings, Leave-taking, Apologizing, Thanking and Requesting. PhD. dissertation, University of Canterbury. P. 135–137.

O‘zbek tilida “Ko‘rishguncha” ma’nosini ifodalovchi quyidagi birliklarni kuzatdik va bu-larga to‘g‘ri keladigan forsiy ekvivalentlarni ham qayd etishni joiz deb bildik:

“*Ko‘rishguncha*” – تا دیدار / با امید دیدار / فعلاً / تا بعد/می بینمتان (ta didar/ba omide xoda/fe‘län/ta bäd/mibinämet); “*Mayli, xayr*” – خدا نگهدار / خدا حافظ (xoda xafezi/xoda negähdar); “*Mayli, sog‘ bo‘ling*” – بدرود / بسلامتی [besälamäti/bedorud]; “*Bo‘pti, mayli ko‘rishamiz*” – تا دیدار / با امید دیدار / فعلاً / تا بعد/می بینمتان (ta didar/ba omide xoda/fe‘län/ta bäd/mibinämet); “*Mayli, yana gaplasharmiz*” – خوب، با شما – انشاءالله در تماس باشیم (inşäälläh där tämas başim); “*Bo‘pti, xayrlashmaymiz*” – فعلاً – (fe‘län). خدا حافظی نمی کنیم<sup>1</sup>.

Bu o‘rinda mayli (rozilik javobini bildiruvchi yuklama “roziman, ma‘qul”), bo‘pti (bo‘libdi so‘zining qisqartmasi bo‘lib, rozilik javobini bildiradi) so‘zlari xayrlashuv aktini boshlab beradilar. “Mayli”, “Bo‘pti” fors tilidagi خوب/پس (xub) (pas) so‘zlariga ekvivalent bo‘lishini kuzatdik. “Ko‘rishguncha”, “Mayli, xayr”, “Mayli, sog‘ bo‘ling”, “Bo‘pti, mayli ko‘rishamiz”, “Mayli, yana gaplasharmiz” – “Qachondir ko‘rishamiz, qachonligi aniq emas” ma’nosini beradi. “Bo‘pti, xayrlashmaymiz”, “Hali ko‘rishamiz” iboralari yana uchrashish yoki aloqada bo‘lishga reja borligini bildiradi.

Har ikki tilda ham pozitiv hurmat belgilari ko‘rinadi va tinglovchini ulug‘lash, o‘zini pastga urish kabi diskurs vositalari qo‘llanilmaydi.

Fors tilida mehmon, mijozni kuzatayotgan mezbon tomonidan xayrlashuv quyidagicha ifo-dalanadi:

| Lug‘aviy tarjimasi                 | Transkripsiya         | Fors tilida      |
|------------------------------------|-----------------------|------------------|
| Sog‘ bo‘ling                       | be sälamät            | به سلامت         |
| Xudo siz bilan bo‘lsin             | xoda be hämrat        | خدا به همراة     |
| Xudo siz bilan hamroh bo‘lsin      | däste häy be behämrat | دست حق به همراة  |
| Alining qo‘li sizga hamroh bo‘lsin | däste äli be hämrat   | دست علی به همراة |
| Xudo panohida bo‘ling              | där pänahe xoda       | در پناه ی خدا    |
| Xudo (Haq) panohida bo‘ling        | där pänahe häy        | در پناه ی حق     |
| Yaxshiliklar uchrasin              | xeyrpiš               | خیر پیش          |
| Yana uchrashuv umidi bilan         | be omide didar        | به امید دیدار    |
| Qurboningiz bo‘lay                 | yorbunet              | قربانت           |

Demak, fors tilida hamma holat uchun birdek qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan xayrlashuv birligi خُداحافظ (Xoda hafez) (ma‘nosi “Xudo asrasin!”)–Xayr! so‘zini universal deb qabul qilish mumkin.<sup>2</sup> Og‘zaki tallaffuzda (xodafez) tarzida qo‘llanilishi jonli kuzatuvlar asnosida aniqlandi. Uning sinonimi خُدا نگهدار [xoda negähdar]– “Xudo asrasin” ko‘proq rasmiy nutqda mahsuldir. Arabcha o‘zlashmalarni qo‘llamaslik tarafdorlari tomonidan بَدْرود (Bedrud) afzal ko‘riladi. بَدْرود (Bedrud) so‘zi etimologiyasiga to‘xtalsak, o‘rta fors tilidagi دَرْت (drot) – sog‘liq, farovonlik ma‘nolarini anglatuvchi islomdan oldingi salomlashuv iborasi bo‘lib, بَدْرود (be+dorud) “sog‘lik/farovonlik bilan” deb tarjima qilinadi. Zamonaviy fors tilida بَدْرود (Bedrud) yuqori hurmatni ifodalovchi rasmiy nutq xayrlashuv so‘zi deb qabul qilingan.<sup>3</sup> دَرود (dorud) “salom” so‘zi o‘rta fors tiliga tegishli دَرْت (dort) “sog‘liq” so‘zidan, دَرْت (dort) so‘zi esa forscha درست (dorost) “to‘g‘ri” so‘zidan kelib chiqqan,<sup>4</sup> fonetik o‘zgarish bilan birga *semantik amelioratsiyaga* uchragan. Fors

<sup>1</sup> A.Quronbekov. Fors tili darsligi. 3-kitob. Toshkent davlat sharqshunoslik instituti. 2011-yil.

<sup>2</sup> <https://www.quora.com/How-do-you-say-Goodbye-in-Persian>

<sup>3</sup> <https://forum.wordreference.com/threads/persian-bedruud.2624851/>

<sup>4</sup> <https://infogalactic.com/info/Durood>

tilidagi درست (qadimiy shakli: drost) “to‘g‘ri” so‘zi fransuzcha “juste” va inglizcha “just” (aniq, adolatli) so‘zlari bilan umumiy etimologik tarixga ega.

Bir xil (takroriy) so‘z bilan nutq aktlari suhbatini amalga oshirish fors tili vakillariga xos emas. Eron xalqi, iloji boricha, bir xil ma‘noni ifodalasa ham, shaklan turli so‘z variantlarini nutqda navbatma-navbat qo‘llashlari bir tarafdin taorifni (hurmatni ifodalash) bildirsa, ikkinchi tarafdin, so‘zamollik bo‘yicha musobaqa o‘yindek ham qaraladi. Masalan:

A: خدا نگهدار! خدا حافظ! (xoda negāhdar, xodahafez) (Xudo asrasin) Xayr, xayr.

B: خدا حافظ شما! (xodahafeze šoma). Xayr.

Birinchi suhbatdosh bir xil ma‘noni bildiruvchi (Xudo asrasin) “Xayr” so‘zining ikki xil shaklini ketma-ket qo‘llab, hurmatga urg‘u berayotgan bo‘lsa, ikkinchi suhbatdosh خدا حافظ (xodahafez) yonidan ikkinchi shaxs, ko‘plik olmoshini izofa bilan qo‘llab, خدا حافظ شما (xodahafeze šoma) so‘zi bilan birinchi suhbatdosh qo‘llagan so‘zning ayni o‘zini emas, unga biroz shakliyi (ma‘noviy emas) o‘zgartirish kiritib, javob bermoqda.

Bu tendensiyani o‘zbek tili nutqida ham mahsuldor darajada uchratdik.

*Suhbat-1:* A: Mayli, xayr. Yaxshilikda ko‘rishaylik.

خدا حافظ. با امید دیدار بخاطر خوبی.

B: Bo‘pti, yaxshi yuring, xayr.

خدا حافظ. خوب، مراقب خودتان باشید، خدا حافظ.

*Suhbat-2:* A: Mayli xayr, sog‘ bo‘ling. – خدا حافظ. به سلامت.

B: Xayr, salomat bo‘ling. – خدا حافظ. به سلامت.

(Ingliz tilida: A: Bye, see you! B: Bye!).

Taorif birliklarini qo‘llash hurmat va ehtirom belgisi bo‘lgan fors xalqi nutqidagi قربونت برم (ghorbunet berām) Qurboningiz bo‘lay! (Men o‘zimni siz uchun qurbon qilay) iborasi turli nutq aktlari ichida xayrlashuv va salomlashuv o‘rnida ham qo‘llaniladi. Buning ma‘nosini tushunib tinglagan xorijlik suhbatdosh “eron xalqi juda xushmuomala” yoki “fors nutqi etiket birliklari mubolag‘ali” degan fikrga borishi tabiiy holdir.

با اجازه (Ba ejaze)<sup>2</sup> – Ijozatingiz bilan, ruxsatingiz bilan – fors tilida o‘rtacha rasmiy va rasmiy muloqotlarda birinchi bo‘lib xayrlashishni boshlovchi suhbatdosh tomonidan aytiladi. O‘zbek tilida ham xuddi shu birlikning norasmiy va rasmiy muloqot uchun “Ruxsatingiz bilan bo‘raylik”, “Mayli, bizga endi ruxsat” kabi ekvivalentlari mavjud.

ما رفتیم (Ma raftim) Biz ketdik (Men ketmoqchiman) – norasmiy muloqotda hurmat izhori va kamtarlik ma‘nosini aks ettirish maqsadida 1-shaxs birlik o‘rniga 1-shaxs ko‘plik olmoshi va fe‘lning shaxs-son qo‘shimchalari qo‘shiladi va fe‘l ma‘no jihatdan kelasi zamonga tegishli, ammo shaklan o‘tgan zamon aniq fe‘lida tuslangan. Zamonning almashinuvi ish harakat juda tez vaqt ichida amalga oshirilishini bildiradi.

O‘zbek tilida mehmon va mezbon suhbatlarida “Xayr”, “Yaxshi boring”, “Uydagilarga salom ayting”, “Yana keling”, “Yotib boradingiz”, “O‘tiring yana bir pas”, “Alloh panohida asrasin”, “Allohga omonat topshirdim”, “Yaxshi yetib oling”, “Yaxshi qoling”, “Ehtiyot bo‘ling”, “O‘zingizni ehtiyot qiling”, “Yuring aylantirib kelaman”, “Yuring biznikiga”, “Boring biznikiga ham” kabi ko‘rinishlarini uchratdik.<sup>3</sup>

**Xulosa.** Ko‘pgina tillarda xayrlashuv kishilar bir-biri bilan yana ko‘rishishga umid bildirish va Xudodan yaxshilik tilash bilan bog‘liqdir.

Fors va o‘zbek tillarida xayrlashuv birliklarini qo‘llashda pozitiv feys yetakchilik qiladi.

<sup>1</sup> Saberi K. (2012). Routine Politeness Formulae in Persian: A Socio-Lexical Analysis of Greetings, Leave-taking, Apologizing, Thanking and Requesting. Ph.D. dissertation, University of Canterbury. P. 130–132.

<sup>2</sup> Corey Miller, Rachel Strong, Mark Vinson, Claudia M. Brugman. Ritualized Indirectness in Persian: taarof and related strategies of interpersonal management. UNIVERSITY OF MARYLAND CENTER FOR ADVANCED STUDY OF LANGUAGE. November, 2014, p. 29.

<sup>3</sup> DCT (Discourse Centre Tasks) metodidagi so‘rovnomasi.

Nutqiy etiket birliklarini xayrlashuv suhbatida qo'llash fors va o'zbek tilida birgina so'z yoki ibora bilan cheklanmasdan, bir necha iboralar dastasining qo'llanilishi kuzatildi. Bunda Eronliklarda go'yoki "so'zamollik musobaqasi" va hurmat ko'rsatish qabilida bo'lsa, o'zbek tilida hurmat va takalluf ma'nosida aks etishi aniqlandi.

Har ikkala tilda ham, samimiy yoki nosamimiy taorif/nutqiy etiket birliklarini yozma manbadan aniqlash mushkul. Bunda paralingvistik vositalar va noverbal muloqot ham muhim o'rin tutadi. Kishilarning yuz ifodasi, gapirish ohangi, o'zini tutishidan samimiy yoki shunchaki "hurmat yuzasidan" munosabatni his qilish mumkin.

Gender xususiyatlariga ko'ra, fors ayollari erkaklarga qaraganda madaniy majburiyat yuzasidan nutqiy etiket birliklarini qo'llashlari jonli kuzatuv va yozma yozishmalar orqali ham belgilandi. Xayrlashuv iborasi سلامت باشيد! (sälamät başid) Salomat bo'ling! asosan ayollar nutqiga xos. قربان شما! (ghorbane şoma) qurboningiz bo'lay! فدات شوم! (fedat şäväm) Fidoyingiz bo'lay! بنده (bände) qulingiz kabi o'zini pastga urib, suhbatdoshni ulug'lash prinsipi erkaklar nutqida ko'proq kuzatildi. O'zbek tilida nutqiy etiket birliklari gender jihatdan farqlanmasa-da, xayrlashuv iborasi ortidan qo'llanilgan "erkalash" (aylanay, girgitton, qoqindiq) so'zlari ayollar nutqiga xos.

Eronda musulmonlar arabcha o'zlashmalarni qo'llashni afzal bilsalar, musulmon bo'lmaganlar va "fors so'z tili jonkuyarlari" so'z forscha so'zdan tuzilgan iboralarni qo'llashga urinalar. O'zbek tilida so'zlovchilarning deyarli barchasi musulmon bo'lgani uchun, arab tili o'zlashmalariga ijobiy munosabatni ko'ramiz.

**Абдуқаҳхоров Сардорбек Акрамжон ўғли (Андижон Давлат университетити ўқитувчиси)  
ГЛОБАЛЛАШУВ ЖАРАЁНИДА НУТҚ МАДАНИЯТИ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ**

***Аннотация.** Мақола замонавий нутқ маданияти ривожланиши тенденцияларига бағишланган. Глобаллашув – тил ва нутқий маданиятни ўзгартирган ҳолда жамият ҳаётининг ижтимоий-маданий соҳасини трансформацияловчи воқелиқдир. Инглиз тили "глобаллашув тили" сифатида кўп тилларга ва уларнинг нутқ маданиятига таъсир этади.*

***Аннотация.** Статья посвящена тенденциям развития современной речевой культуры. Глобализация – явление, которое трансформирует социокультурную сферу жизни общества, изменяя язык и речевую культуру. Английский язык как «язык глобализации» оказывает влияние на русский язык и речевую культуру.*

***Annotation.** This article is dedicated to the development tendencies of modern speech culture. Globalization is a phenomenon that transforms the socio-cultural sphere of society, changing the language and speech culture. English language influences lots of languages and their speech culture as "a language of globalization".*

***Калим сўзлар:** глобаллашув, тил, нутқ, алоқа мулоқоти (коммуникация), нутқ маданияти.*

***Ключевые слова:** глобализация, язык, речь, коммуникация, речевая культура.*

***Key words:** globalization, language, speech, communication, culture.*

Ҳозирги кунда глобаллашув жараёнининг инсон фаолиятининг барча соҳаларида жадаллашуви кузатилмоқда. Глобаллашув – ҳозирги кунда кўплаб мулоҳазалар билдири-лаётган ва музокараларга сабаб бўлаётган муҳим муаммолардан бири ва тадқиқотчилар-нинг унга нисбатан ёндашуви ва берган баҳолари ҳам турличадир. Айрим тадқиқотларда глобаллашувнинг иқтисодий жиҳатларига, реал равишда товар ва хизматларнинг ягона бозори шаклланишига эътибор қаратилган бўлса, айримларида – ягона ахборот макони шаклланишига, яна бошқаларида эса ягона тартиб-интизом стандартлари ривожланишига

## ILMIY AXBOROT

|   |     |
|---|-----|
| <b>Turdiyeva Hulkar Komilovna.</b> Nutqiy akt lingvopragmatikasi: fors va o‘zbek tillarida xayrlashuv birliklari.....         | 96  |
| <b>Абдуқаҳҳоров Сардорбек Акрамжон ўғли.</b> Глобаллашув жараёнида нутқ маданияти тенденциялари.....                          | 101 |
| <b>Usmonov Aslam.</b> Bog‘lovchilarning badiiy matnda pragmatik xususiyatlari.....  | 103 |
| <b>Примов Азамат Искандарович.</b> Шарафуддин Али Яздийнинг «Зафарнома» асарига кийим-кечак ва безак буюмлари лексикаси.....  | 106 |
| <b>Shamuratova Intizor Bekchan qizi.</b> Transliteratsiyaning badiiy matnda qo‘llanilishi.....                                | 110 |
| <b>Жўраева Мадинахон.</b> Ислом тарихида биобиблиографик луғатлар эволюцияси.....   | 113 |
| <b>Jumayeva Zubayda Shavkatovna.</b> Frazeologik birliklarning lingvokulturologik tadqiqi.....                                | 117 |
| <b>Баротова Мубашира.</b> Фразеологизмларнинг ўзига хос хусусиятлари (Э.Аъзам асарлари мисолида).....                         | 121 |
| <b>Саидакбарова Саодат Пархаджановна.</b> Ўзбек ва инглиз гастронмик фразеологизмларнинг таржимасидаги ўхшашликлар.....       | 124 |
| <b>Нармуратов Зайниддин Раджабович.</b> Инглиз халқ мақолларида миллийлик ва универсаллик хусусиятларининг ифодаланиши.....   | 128 |
| <b>Зиётова Сурайё Эркин қизи.</b> “Меҳробдан чаён” асарида паремияларнинг қўлланилиши.....                                    | 133 |
| <b>Расулова Умида.</b> Поэтик анъана ва миллий киссалар.....  | 135 |
| <b>Худайберганова Умида.</b> Бизга ҳамнафас шоир.....   | 138 |
| <b>Султонова Нилуфар Нарзуллаевна.</b> Исажон Султон “Генетик” романининг услубий хусусиятлари.....                           | 142 |
| <b>Лола Самандарова.</b> Комил Аваз шеърисида фольклоризмларнинг қўлланилиши.....   | 148 |
| <b>Искандарова Шарифа Мадалиевна, Ашуров Дилмурод Ахмадалиевич.</b> Халқ дostonлари – лингвомаданий birliklar fondi.....      | 152 |
| <b>Қаршибаева Улжан.</b> А.Конан Дойл асарларида кучли ва қўрқмас персонажлар.....  | 157 |
| <b>Хулкар Мухаммедова.</b> Инглиз адабиётида аёллар насри гендер тадқиқотлар аспектида...                                     | 161 |
| <b>Ражабов Фахриддин Тошпўлотович.</b> Нуроталик тожикзабон ижодкорлар ҳақида мулоҳазалар.....                                | 164 |
| <b>Мухаммедова Нилуфар.</b> Инглиз адабиётида шарқ аёли портрети.....   | 168 |
| <b>Қурбонова Элнур Ғайбуллоевна.</b> Мумтоз адабиётда ирфоний мазмун бадий талқинининг тадрижий такомилли.....                | 171 |
| <b>Қурбанова Саида.</b> Хуршид Дўстмуҳаммад бадий публицистикасида шахс концепцияси.....                                      | 175 |
| <b>Eshmo‘minova Tursunoy Boynazarovna.</b> Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda badiiy adabiyotning o‘rni..... | 178 |
| <b>Рамазанова Шоира.</b> Специфика представления композитов в «Словообразовательном словаре русского языка» А.Н.Тихонова..... | 181 |
| <b>Маткаримова Джамиля Дурдиевна.</b> Стратегия развития третьего сектора в разных странах.....                               | 183 |
| <b>Iskanova Nasiba, Bobokulova Gulchiroy.</b> The Beneficial Influence of Reading Books in Realizing the World Better.....    | 188 |
| <b>Xujaniyozova Hilola Turayevna.</b> The Importance of Stylistic Devices in the Court of Judicial’s Speech.....              | 192 |
| <b>Egamberdiyeva Nodira Khamidovna.</b> Assessment Strategies to Enhance Students’ Progress in Learning.....                  | 194 |

# “ILM SARCHASHMALARI”

Urganch davlat universitetining ilmiy-metodik jurnali

Muharrir **Ro‘zimboy Yo‘ldoshev**  
Texnik muharrir **Sherali Yo‘ldoshev**  
Musahhihlar: **Tamara Turumova,**  
**Oybek Qalandarov**  
Ushbu songa mas’ul **Maqsuda Hajiyeva**

Terishga berildi: 20.02.2020  
Bosishga ruxsat etildi: 29.02.2020.  
Ofset qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84 1/8.  
Rizograf bosma usuli. Tayms garniturasi.  
Adadi 150. Buyurtma №. 15  
Hisob-nashriyot tabag‘i 17,5  
Shartli bosma tabag‘i 16,3  
UrDU bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: 220110. Urganch shahri, H.Olimjon ko‘chasi, 14-uy.  
Telefon/faks: (0362)-224-66-01;  
e-mail: [ilmsarchashmalari@umail.uz](mailto:ilmsarchashmalari@umail.uz)  
[ilmsarchashmalari@mail.ru](mailto:ilmsarchashmalari@mail.ru)  
Veb-sayt: [www.ilmsarchashmalari.uz](http://www.ilmsarchashmalari.uz)  
Telegram: <https://t.me/ilmsarchashmalari>